

25-mavzu: [b] tovushi. Bb harfi

Dars maqsadi:

- [b] tovushining talaffuzi va Bb harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [b] undosh tovush ekanligini bilib oladilar.
- soʻzlardan [b] tovushining oʻrnini aniqlashni oʻrganadilar;
- soʻzni boʻgʻinga boʻlib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch soʻzlar: gap bilan matn farqi, [b] tovushi

Didaktik materiallar: koʻk va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlı kartochkalar, “Boʻri bilan tulki” audio ertak

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : Oʻquvchılardan bugungi kun sanasi soʻraladi.

Diqqat mashqi: Oʻqıtuvchi doslaga n, m, d, l harflarını bir necha marta turli xil rangda koʻrinishda yozadi. Ular orasida xatolari ham boʻlishi kerak.

- *Bugun siz bilan “Diqqat” mashqini oʻtkazamiz. Doskada yozilgan harflar orasidan toʻgʻri yozilganlarını toping.*

Asosiy qism (40 daqiqa)

4. Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

Oʻqıtuvchi doskaga bola va lola rasmini qoʻyadi. Oʻquvchılardan shu soʻzlarnı ifodalovchi soʻzlarda qanday tovush oʻzgarganını soʻraydi.

- *Doskadagi rasmlarga qarang. Ularnı soʻz bilan ifodalang. Soʻzlarda qaysi tovush oʻzgarganını toping.*

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Rasmni qanday soʻz bilan ifodaladingiz?*
- *Lola soʻzidagi qaysi tovush oʻzgardi?*

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

2.Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

Oʻqıtuvchi [b] tovushını qanday hosil boʻlishını tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda toʻsiqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga boʻgʻin hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshıttiriladi.

Oʻqıtuvchi uchun eslatma:

B tovushını talaffuzida lablar tinch holatda birikkan boʻlib, havo chiqishi bilan birdaniga ochiladi, tish qirralari orasidagi masofa va tilning holati **B** tovushidan keyin keladigan unli tovushga bogʻliq boʻladi, yumshoq tanglay koʻtarilgan va tomoqning orqa devoriga siqilgan boʻlib, burun yoʻllarını yopib turadi. Havo

oqimi og'izdan o'tadi, tovush boylamlari birikkan bo'ladi va tebranib tovush hosil qiladi.

Darslikdan Bb harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

Qanotlarin yig'ib olgan

Kapalakning o'ziman.

Yelkan bo'lib kemalarda

Shamollardan o'zaman.

- *She'r nima haqida?*
- *B harfi nimaga o'xshatilgan?*
- *[b] tovushi bilan boshlanadigan qanday so'zlar bor?*
- *b harfi bilan boshlanadigan qanday so'zlarini bilasiz?*

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Dars

25-dars [b] tovushi. Bb harfi

[b] tovushi – undosh tovush. Talaffuzida jipslashgan lablar havo chiqishi bilan birdaniga ochiladi.

Qanotlarin yig'ib olgan
Kapalakning o'ziman.
Yelkan bo'lib kemalarda
Shamollardan o'zaman.

	a	o	i	u	o'
b	ba	bo	bi	bu	bo'

Ba	bal	ba-nan	bi-lan	bu-ta
Bo	bol	bo-la	bi-lim	bu-lut
Bi	bil	bi-no	bi-lak	bo-dom
Bo'	bo'l	bo'-lim	bo'-lak	bom-dod

Bu – Ak-mal. U – bi-lim-li, o-dob-li bo-la. Ak-mal mak-tab-da bi-lim o-la-di. U do-i-mo ki-tob o-la-di. Ki-tob – bi-lim ma-ko-ni.

Bo'ri bilan tulki

Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

Matndagi tushurib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib o'qib beriladi.

Matnga sarlavha qo'yiladi.

(Bilimli bola)

Bu – Ak-mal. U – bi-lim-li, o-dob-li bo-la.

Ak-mal mak-tab-da bi-lim o-la-di. U do-i-mo ki-tob o'qiydi.

Ki-tob – bi-lim ma-ko-ni.

Tinglab tushunish: “Bo'ri bilan tulki” ertagi tinglanadi. Uning qahramonlariga ta'rif beriladi.

Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)

1. Bb harfini tegishli rangga bo'yang. Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.
2. Baliq so'zining chizmasida [b] tovushining

o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.

3. Berilgan namunadan bosma Bb harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng o'zlari yozing.

4. So'zlarni nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.

5. B harfining o'rnini aniqlang ba shu katakni bo'yang.

Darsga yakun yasash:

- *Qanday tovush bilan tanishdingiz?*
- *Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*
- *Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?*
- *Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?*

26-mavzu: [b] tovushi. Bb harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [b] tovushining talaffuzi va Bb harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [b] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: Qo'shiq, she'ni davom ettirish, [b] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmi va bo'g'inli kartochkalar, kesma harflar.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Kim chaqqon mashqi: O'qituvchi sinf devorlariga bo'g'inlar yozilgan kartochkalarni ilib qo'yadi. Dorskaga qizil va ko'k rangli kartochkalarni qo'yadi. O'quvchilardan bo'g'inlarni o'qib ochiq bo'g'inli kartochkalarni olgan o'quvchilar qizil, yopiq bo'g'inli kartochkalarni olgan o'quvchilar esa ko'k rang oldiga tez kelib turishlarini so'raydi.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi kesma harflar yordamida b harfi bilan boshlanadigan 5 ta so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yoramida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlaringizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Qanday so'zlar tuza oldingiz?*
- *Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?*
- *Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?*